

**“UzAuto Motors” AJ**  
**XARID XUJJATLARI**



25ZD-9035-00057

2025-05-28

**“Tasdiqlayman”**  
**“UzAuto Motors” AJ**  
**Xorazm viloyat filiali**  
**Boshqaruvchi direktori**  
**S.M.Jumaniyazov**

“UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyat filiali ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish bino va yordamchi inshootlariga oʻrnatilgan yongʻindan xabar berish, yongʻinni gazli (xladon 227ea) oʻchirish, yongʻinni suvli-purkab oʻchirish avtomatik tizimlariga hamda perimetr boʻylab qoʻriqlash avtomatik signalizatsiya tizimiga texnik xizmat koʻrsatish xizmatlarini xarid qilish

**ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASH BOʻYICHA XARID HUJJATI**

Buyurtmachi: “UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyat filiali

**Pitnak 2025-yil**

## **Mundarija**

- I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo‘riqnoma.
- II. Tanlash taklifining texnik qismini baholash.
- III. Tanlash taklifining narx qismini baholash.

## ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO'YICHA MA'LUMOT

**Tanlash predmeti:** "UzAuto Motors" AJ Xorazm viloyat filiali ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish bino va yordamchi inshootlariga o'rnatilgan yong'indan xabar berish, yong'inni gazli (xladon 227ea) o'chirish, yong'inni suvli-purkab o'chirish avtomatik tizimlariga hamda perimetr bo'ylab qo'riqlash avtomatik signalizatsiya tizimiga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarini xarid qilish.

**Xaridning reja jadvali:** 2025-yil.

**Savdolar o'tkaziladigan davr (chorak):** 2025 yil, 2-chorak.

**Moliyalashtirish manbai:** O'z hisobidan.

**Boshlang'ich narxi:** 450 270 612,00 so'm QQS bilan.

Takliflar boshlang'ich narxdan baland bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga, barcha ishtirokchilar (rezidentlar va norezidentlar) yetkazib beruvchidan tovarlar va xizmatlarni yetkazib berishi bilan bog'liq barcha soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa tegishli xarajatlarni hisobga olgan holda o'zlarining narx takliflarini taqdim etadilar (o'rnatish, ishga tushirish, nazorat qilish, o'qitish).

**Zakalat miqdori:** 0 %

**Texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari muddatlari:** Texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari shartnomaga asosan tuzilgan sanadan boshlab 1 yil (12 oy)gacha bo'lgan davrda har oyda bir marta, har oyning 5-sanasidan 10-sanasigacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

**Ishtirokchilar uchun to'lov shartlari:** To'lovlar har oyda reglamentga asosan bajarilgan texnik xizmatlar (ishlar) uchun hisob-varaq-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan 100% foiz miqdorida o'tkazib beriladi.

**Ishtirokchilar uchun to'lov valyutasi:** UZS.

**Mahsulot yetkazib berish joyi (ishni bajarish):** Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani Pitnak shahri, Xalqlar do'stligi ko'chasi 1-uy. "UzAuto Motors" AJ Xorazm viloyat filiali ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish bino va yordamchi inshootlari.

**Xizmatlar ko'rsatish muddati:** 12 oy (1 yil)

**Ishtirokchilar takliflarini amal qilish muddati:** takliflar qabul qilinishi tugagan kundan boshlab kamida 60 (oltmish) kun.

**Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:** Tanlashda yong'indan xabar berish, yong'inni gazli o'chirish, yong'inni suvli-purkab o'chirish avtomatik tizimlariga hamda qo'riqlash avtomatik signalizatsiya tizimlariga texnik xizmatlarini ko'rsatish maxsus ruxsatnomasiga hamda tajribasiga ega bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan O'zbekistonda shunga o'xshash, raqobat asosida xarid qilinadigan, davlat xaridlarida ishtiroki taqiqlanmagan, mahalliy va shu turdagi xizmat ko'rsatuvchi xorijiy yetkazib beruvchilar (ijrochilar) ishtirok qilishlari mumkin.

**Takliflar berish muddati:** 30 (o'ttiz) ish kuni.

**Tanlovni o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining mas'ul kotibi (yoki ishchi organ):**

Xarid komissiyasining mas'ul kotibi – Global xarid bo'limi boshlig'i v.v.b. S.Sh.Egamberdiyev, E-mail: [Sardor.Egamberdiyev@uzautomotors.com](mailto:Sardor.Egamberdiyev@uzautomotors.com).

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani Pitnak shahri, Xalqlar do'stligi ko'chasi 1-uy.

**Takliflarni baholash mezonlari:** Eng past narx usuli.

## **I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma**

### **1. Umumiy qoidalar**

**1.1.** Ushbu eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid hujjatlari (keyingi o'rinlarda – tanlash hujjatlari) O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-684- sonli Qonuni (keyingi o'rinlarda – Qonun) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tanlash predmeti: “UZAuto Motors” AJ Xorazm viloyat filiali ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish bino va yordamchi inshootlariga o'rnatilgan yong'indan xabar berish, yong'inni gazli o'chirish, yong'inni suvli-purkab o'chirish avtomatik tizimlariga hamda qo'riqlash avtomatik signalizatsiya tizimiga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari.

**1.2. Asos:** Ushbu loyiha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.10.2020-yildagi 649-son qarori bilan belgilangan yong'in xavfsizligi qoidalari “Yong'in xavfsizligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq odamlarning hayoti va sog'lig'ini, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini, O'zbekiston Respublikasi hududida umumiy yong'in xavfsizligi talablarini ta'minlash hamda atrof tabiiy muhitni yong'inlardan himoya qilish maqsadida tayyorlangan.

**1.3.** Ushbu xarid hujjatlarida foydalaniladigan asosiy tushunchalar:

**Bajarilgan ishlar uchun oylik to'lov** – qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib - taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan har oyda reglamentga asosan bajarilgan texnik xizmatlar (ishlar) uchun hisob-varaq-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan 100% foiz miqdorida o'tkazib berishni o'z ichiga olgan moliyaviy mablag'lar summasi;

**Taklifni ta'minlash** – buyurtmachining talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta'minlanishi;

**Elektron davlat xaridlari tizimining operatori (keyingi o'rinlarda – operator)** – davlat taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan, davlat xaridlari bo'yicha vakolatli organ tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxsdir;

**Shaxsiy kabinet** – elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylash;

**Hisob-kitob-kliring palatasi** (keyingi o'rinlarda – HKKP) – to'lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo'li bilan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajara oladigan ishtirokchilarni elektron xaridlariga kirishini ta'minlovchi maxsus axborot portalining tarkibiy bo'linmasi;

**Davlat xaridlarining elektron tizimi (keyingi o'rinlarda – elektron tizim)** – elektron davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlari sub'yektlarini o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan tashkiliy, axborot va texnik vositalarning dasturiy majmui. Elektron davlat xaridi - davlat xaridi sub'yektlarining axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda davlat xaridini amalga oshirish shakli. Xarid komissiyasining majlislari xarid xarid komissiyasi a'zolari ishtiroki ta'minlangan holda o'tkaziladi. Uchrashuvlar videokonferentsiya formatida o'tkazilishi ham mumkin (yoki telekonferentsiyalar va boshqalar). Xarid komissiyasi axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.

**Elektron chat (keyingi o'rinlarda - chat)** – tanlash ishtirokchisi davlat buyurtmachisiga tanlash uchun sotib olish hujjatlaridagi talablarni aniqlashtirish to'g'risida so'rov yuborish va dastlabki elektron bayonnoma e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlov o'tkazish natijalari bo'yicha davlat xaridlarin elektron tizimi orqali e'tirozlar yuborish uchun elektron tizimdagi ochiq elektron chat.

**ERI** – elektron raqamli imzo.

### **2. Elektron tanlash tashkilotchisi**

**2.1.** Tanlov buyurtmachisi “UZAuto Motors” AJ (keyingi o'rinlarda “Buyurtmachi”) hisoblanadi.

Buyurtmachining yuridik manzili: Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani Pitnak shaxri, Xalqlar do'stligi ko'chasi 1-uy.

Buyurtmachining rekvizitlari:

MFO: 00873.

STIR: 200244767.

H/R: 20214 000 700 532 305 053 ATB “Asaka” Xazorasp BXKM

**2.2.** Buyurtmachining aloqa bog'lovchi masul kotib: Global xarid bo'limi boshlig'i v.v.b. S.Sh. Egamberdiyev;

**2.3.** Tanlov komissiyasining ishchi organi “UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyat filiali Global xarid bo‘limi (keyingi o‘rinlarda “Ishchi organ”) hisoblanadi.

**2.4.** Shartnoma egasi: “UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyat filiali.

**2.5.** Tanlash Buyurtmachi tomonidan tashkil etilgan, tarkibida kamida 5 (besh) kishidan iborat bo‘lgan Xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

### **3. Elektron tanlash ishtirokchilari.**

**3.1.** Elektron tanlash ishtirokchisi (keyingi o‘rinlarda – ishtirokchi) elektron tanlashda ishtirok etuvchi O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan davlat xaridini bajarishga davogor yuridik shaxs hisoblanadi;

**3.2.** Ishtirokchi huquqlari:

- davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;
- buyurtmachi davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni o‘tkazish talablari va shartlari bo‘yicha chat orqali so‘rovlar berish hamda tushuntirishlar olishi;
- dastlabki elektron bayonnoma e‘lon qilinganidan so‘ng 2 (ikki) ish kuni ichida davlat buyurtmachisiga tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha chat orqali e‘tirozlar yuborish;
- davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;
- tanlov tugagunga qadar qonunchilikka muvofiq takliflarga o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.

**3.3.** Ishtirokchi majburiyatlari:

- davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilishi;
- jamiyatning komplayens siyosati bilan tanishib chiqish <https://uzautomotors.com/companies/compliance> va siyosat talablariga rioya qilish;
- xarid hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim qilingan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo‘lishi;
- asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor etishi;
- taqdim qilinayotgan ma‘lumot va hujjatlarning haqiqiyliigi va ishonchliligiga javobgar;
- faqat bitta taklif berish huquqiga ega;
- takliflar taqdim qilish muddati tugagunga qadar taqdim qilgan taklifini qaytarib olish yoki o‘zgartirish kiritish huquqiga ega;
- g‘olib deb topilgan taqdirda, davlat buyurtmachisi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart;
- Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi tanlash bo‘yicha ayni bitta LOTda ishtirok etish huquqiga ega emas.

**3.4.** Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuvida bo‘lgan ishtirokchi davlat xaridlari ishtirokchisi.

**3.5.** Ishtirokchi tanlash bo‘yicha g‘olib deb rasman e‘lon qilingan kundan e‘tiboran 2 (ikki ) kun mobaynida davlat xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma‘lumotlarni joylashtirish orqali bevosita yoki bilvosita 20% foiz yoki undan ko‘p aksiyalarga (ulushga) haqiqatdan nazorat qilishga ega bo‘lgan, o‘zining yakuniy manfaatdor shaxslari (benefitsiarlari) to‘g‘risidagi axborotlarni oshkor qilishlari.

### **4. Elektron tanlashga yo‘l qo‘yish.**

**4.1.** Buyurtmachi va ishtirokchilar HKKPdagi shaxsiy hisob - varaqlariga avans to‘lovlarini kiritganlaridan so‘ng elektron davlat xaridlariga qo‘yiladi.

**4.2.** Buyurtmachi va ishtirokchilar elektron tanlashdagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolaridan (keyingi o‘rinlarda – ERI) foydalangan holda amalga oshiradi. Buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan ERIdan foydalanish, elektron tizimda tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Norezident ishtirokchilardan ERIdan foydalanish talab qilinmaydi.

**4.3.** Ishtirokchilarni elektron xaridga kiritish ular tomonidan portaldagi so‘rovnomani elektron tarzda to‘ldirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ishtirokchilarni elektron xaridga kiritish, ularning quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lganda amalga oshiriladi:

- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;
- soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;
- o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib - taomillarining mavjud emasligi;
- insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi.

Soliq organlari tomonidan berilgan ERI mavjudligi ishtirokchini shartnoma tuzish huquqini

belgilaydi.

Ishtirokchi so'rovnomada unga nisbatan qo'llanilgan bankrotlik tartib - taomillari mavjud emasligi hamda soliq va yig'implarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi haqida ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Ishtirokchi tomonidan so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng, portal tomonidan insofsiz ijrochilarning yagona reyestri ma'lumotlarini unda ishtirokchi haqida yozuv mavjud emaslik holati tekshiriladi.

## **5. Tanlashda ishtirok qilish va taklifni taqdim etish tartibi.**

### **5.1. Elektron tanlashda qatnashish uchun ishtirokchi:**

- maxsus axborot portalida ro'yxatdan o'tadi va ro'yxatdan o'tish sahifasida kerakli bo'limlarni to'ldiradi (mijoz turi, shaxsiy ma'lumotlari, aloqa ma'lumotlari). Rezidentlar tizimda faqat elektron raqamli imzo (ERI) yordamida ro'yxatdan o'tishlari mumkin bo'ladi;

- HKKPda ro'yxatdan o'tish jarayoni tugagandan so'ng, ishtirokchi uchun shaxsiy hisob ochiladi. Ishtirokchilar electron davlat xaridlarida HKKPdagi shaxsiy hisob - varaqlarida oldindan to'lov yetarli miqdorda bo'lgan taqdirda ishtirok etadilar;

- tanlash shartlari bilan batafsil tanishgandan so'ng, ishtirokchi electron tanlashda ishtirok etish uchun ariza beradi va "Umumiy ma'lumot" sahifasida "Tovarlar va buyumlar", "Talablar" bo'limlarida kerakli ma'lumotlarni to'ldiradi;

- agar "Talablar" bo'limiga ma'lumot kiritish vaqtida yetkazib beruvchidan har qanday talabni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish so'ralgan bo'lsa, ushbu hujjat fayl sifatida yuklanishi kerak.

**5.2.** Elektron tanlash o'tkazishda ishtirokchilar tomonidan boshlang'ich narxning 0% miqdorida kiritilgan zakalat electron tanlash g'olibi bilan shartnoma tuzilguniga qadar xatlanadi.

**5.3.** Ishtirokchi tomonidan taklifni ta'minlash summasini to'lash talab qilinmaydi va 1 (bir) ish kuni ichida ta'minlash to'g'risida hujjat qaytariladi yoki quyidagi holatlardan biri sodir bo'lganidan keyin qaytarilishi ta'minlanadi:

- taklifning kafolat muddati tugashi;

- davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishini ta'minlash;

- elektron tanlashni bekor qilish;

- takliflarni yuborish muddati tugagunga qadar taklifni qaytarib olish.

**5.4.** Operator elektron tanlash natijasida shartnoma tuzilganidan so'ng, 1 (bir) ish kuni davomida zakalatni banddan yechadi va uni ijrochining tegishli shaxsiy hisob raqamiga qaytaradi. Portal, elektron davlat xaridlarining yakunlariga ko'ra, bitimning haqiqiy summasidan operatorning vositachilik yig'imini buyurtmachi va bajaruvchining avans to'lovlardan ushlab qoladi. Ishtirokchilarning bandi bekor qilingan pul mablag'lari, ularning topshiriqlariga asosan boshqa elektron davlat xaridlarida avans to'lovlari sifatida foydalanilishi mumkin yoki xizmat ko'rsatadigan banklardagi ularning hisob raqamlariga qaytariladi.

## **6. Tanlash takliflarni baholash tartibi.**

**6.1.** Elektron tanlash xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda elektron tizimdagi elektron maydonlar to'ldirilishi kerak.

Elektron tizim ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilmagan maydonlar mavjud bo'lsa yoki biriktirilgan fayllar to'liq bo'lmasa, elektron tizim rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

### **6.2. Tanlash takliflarini baholash quyidagi ketma - ketlikda amalga oshiriladi:**

- tanlash taklifini tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;

- ishtirokchining malaka talablariga muvofiqligini baholash;
- tanlash taklifining texnik qismini baholash;
- tanlash taklifining narx qismini baholash.

Bunda elektron tizim tanlash taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tanlash taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma - ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.

**6.3.** Dastlabki malakaviy tanlash o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati ushbu yo'riqnomaga 1-ilovada keltirilgan.

**6.4.** Tanlash takliflarini baholash va tanlash g'olibini aniqlash tanlash o'tkazish bo'yicha xarid qilish hujjatlarida (2-ilova) belgilangan ketma - ketlik, tartib va mezonlar asosida amalga oshiriladi.

**6.5.** Ishtirokchi quyidagi hollarda xarid qilish tartib - taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

- u to'g'risida insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd mavjud bo'lsa;
- unda soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;
- o'ziga nisbatan bankrotlik tartib - taomillari joriy etilgan bo'lsa;
- ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;
- ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror - bir xatti - harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror - bir xarid qilish tartib - taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;
- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek, affillanganlik hollari aniqlansa;
- ishtirokchi korruptsiyaga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ariza taqdim qilmagan bo'lsa;
- ishtirokchi shartnoma tuzish huquqiga ega bo'lmasa;
- ishtirokchilar tomonidan belgilangan muddatda talab qilinadigan hujjatlar to'plami taqdim etilmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim qilingan hujjatlar to'plami xarid qilish hujjatlari talablariga javob bermasa;
- tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishonchsizligi aniqlangan bo'lsa.

Ishtirokchini xarid qilish tartib - taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qaror va buning sabablari xarid qilish tartib - taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

**6.6.** Agar tanlash taklifi Qonunning va tanlash hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash taklifi tanlash hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha xarid komissiyasi ma'sul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim. Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

**6.7.** Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tanlash ishtirokchilaridan ularning tanlash takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi. Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyati, shuningdek, narxi yuzasidan biror - bir o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi.

**6.8.** Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan oshishi mumkin emas.

## **7. Elektron tanlashda ishtirok etish uchun taklif yuborish.**

**7.1.** Tanlashda ishtirok qilish uchun tanlash taklifi davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlanadi.

7.2. Elektron tanlash o'tkazilganda ishtirokchilar tanlash takliflarini elektron konvert ko'rinishida o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali elektron tanlashni o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar. Har bir joylashtirilgan elektron hujjat ishtirokchining elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

7.3. Tanlash taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin. Bunda ishtirokchilarning tanlash takliflari elektron tizimda shablonlarga muvofiq hujjatlarni birlashtirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar birlashtirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

7.4. Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular elektron tanlash ishtirokchilari, shu jumladan xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasnj. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

7.5. Elektron tanlash ishtirokchisi:

- faqat bitta taklif berishga haqli;
- taqdim qilinaayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliigi va to'g'riligi uchun javobgar;
- takliflarni berish muddati tugaganig qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli.

7.6. Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtda elektron tizim tanlash takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

7.7. Texnik taklif quyidagi hujjatlarni o'z ichiga olishi kerak:

- taklif etilayotgan xizmatlarning texnik taklifi (4-shakl);
- texnik hujjatlar (broshyuralar va boshqalar yoki taklif xizmatning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga olgan boshqa hujjatlar).

7.8. Ishtirokchining narx taklifi elektron tizimning tegishli bo'limiga kiritiladi. Narx taklifini texnik taklif yoki tanlash bo'yicha boshqa hujjatlar bilan kiritish taqiqlanadi.

**Narx taklifini elektron tizimning tegishli bo'lmagan bo'limiga kiritgan ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.**

**8. Tanlov tili, o'lchov birligi.**

8.1. Ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasida amalga oshirilayotgan tanlov taklifi va unga bog'liq yozishmalar (hujjatlar) o'zbek, rus tillarida bo'lishi kerak. Agar tanlov taklifi boshqa tilda taqdim qilinsa, u holda uning o'zbek tilidagi aniq tarjimai ilova qilinishi kerak. Birdan ortiq tildan foydalanilganda, tanlov matnida tafovut bo'lsa o'zbek tilidagi matn ustun qo'yiladi. Texnik hujjatlarni rus va ingliz tillarida taqdim qilishga ruxsat etiladi.

**9. Ishtirokchi takliflarini topshirish muddatini uzaytirish.**

9.1. Zarur bo'lgan hollarda buyurtmachi tomonidan barcha ishtirokchilarga tegishli bo'lgan tanlash takliflarini berish muddati uzaytirilishi yoki tanlash ishtirokchilariga takliflar amal qilish muddatini xarid komissiyasi qarori bilan ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

9.2. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Xizmatlarning (ishlarning) nomini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda mazkur tanlashda takliflar kiritish muddati xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan boshlab kamida 3 (uch) ish kuniga uzaytirilishi kerak. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.

**10. Elektron tanlash natijalarini baholash.**

10.1. Xarid komissiyasi tomonidan texnik qismni baholash, shuningdek, qabul qilingan takliflarning narx qismini avtomatik baholash natijalariga ko'ra elektron tizim avtomatik ravishda g'olib va zahira ijrochisini aniqlaydi.

10.2. Elektron tanlashda quyidagi holatlarda tanlash o'tkazilmagan deb topiladi:

- bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki birona ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda;

- malakaviy, texnik baholash bosqichida xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etsa yoki faqat bitta taklif tanlashda xarid qilish hujjatlari talablariga javob bersa. Bunday holatda buyurtmachi elektron tanlashni ayni shu shartlarda hamda xizmatlarga (ishlarga) doir ayni shu mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.

**10.3.** Tanlash takliflarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra xarid komissiyasining ma'sul kotibi elektron tizimdagi mavjud shablonlar asosida xarid komissiya yig'ilishining elektron bayonnomalarini shakllantiradi hamda tasdiqlash uchun xarid komissiyasi a'zolariga yo'llaydi. Xarid komissiyasi a'zolari yig'ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnamdan ko'chirma portalda avtomatik ravishda e'lon qilinadi. Bayonnoma davlat buyurtmachisi tomonidan u rasmiylashtirgan kundan davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun 2(ikki) ish kuniga joylashtiriladi.

Agar 2 (ikki) ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, davlat buyurtmachi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi. Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

## **11. Boshqa shartlar.**

**11.1.** Elektron tanlash ishtirokchisi tanlash hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabibilan xarid komissiyasining ma'sul kotibiga tanlash takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida 2 (ikki) kun oldin so'rov yuborishga haqli. Agar shunday so'rov buyurtmachiga takliflar qabul qilish muddati tugashidan 2 (ikki) ish kuni oldin kelib tushsa, buyurtmachi so'rov kelib tushgan kundan boshlab 2(ikki) ish kuni ichida ishtirokchiga tushuntirishini yuborishi shart. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun - mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

**11.2.** Buyurtmachi istalgan vaqtda tanlash g'olibi tomonidan aksept qilinishidan oldin tanlashni bekor qilishga haqli. Tanlash bekor qilingan taqdirda buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.

**11.3.** Bekor qilish sabablari bekor qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kunida davlat xaridlari maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.

**11.4.** Tanlashda ishtirokchilariga "UzAuto Motors" AJ Xorazm viloyat filiali ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish bino va yordamchi inshootlariga o'rnatilgan yong'indan xabar berish, yong'inni gazli o'chirish, yong'inni suvli-purkab o'chirish avtomatik tizimlariga hamda qo'riqlash avtomatik signalizatsiya tizimiga texnik xizmat ko'rsatish texnik hujjatlari kabi konfidensial ma'lumotlar faqat narx shakllantirish va/yoki g'olib deb topilgan taqdirda shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun foydalanish maqsadida, xarid komissiyasi kotibi elektron pochta NDS shartnomani yuborilganida va konfidensial ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv imzolanganidan so'ng 1 (bir) ish kuni ichida taqdim qilinadi.

**11.5.** Konfidensial ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv ishtirokchi tomonidan Didox.uz (tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimi <https://didox.uz/>) orqali NDA shartnomani xarid komissiyasi kotibi elektron pochta manziliga yuborilgan ariza sanasida imzolangan holda.

## **12. Shartnoma imzolash.**

**12.1.** Tanlov natijalariga ko'ra tanlov hujjatlari va ishtirokchi taqdim qilgan tanlov taklifi shartlari asosida ushbu ishtirokchi bilan 10 (o'n) ish kuni ichida shartnoma imzolandi.

**12.2.** G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agarda zahiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zahiradagi g'olibga o'tadi. Bunga zahiradi g'olib, g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zahiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar zahiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zahiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, buyurtmachi yangi tanlov o'tkazadi.

**12.3.** Agar tanlovda “UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyat filiali ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish bino va yordamchi inshootlariga oʻrnatilgan yongʻindan xabar berish, yongʻinni gazli oʻchirish, yongʻinni suvli-purkab oʻchirish avtomatik tizimlariga hamda qoʻriqlash avtomatik signalizatsiya tizimiga texnik xizmat koʻrsatish xizmatlarini yetkazib yoki xizmat koʻrsatib bermaydigan yangi tashkilotlar gʻolib deb topilsa u tashkilot bilan shartnoma qilishdan oldin PSA (Potential Supplier Audit) audit qilinadi. Bunday holda, zahira gʻolibi bilan gʻolib taklif qilgan narxda shartnoma tuziladi (zahira gʻolibi taklif qilgan narx gʻolib taklif qilgan narxdan past boʻlgan hollar bundan mustasno) yoki u shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar zahira gʻolibi aniqlanmagan boʻlsa yoki zahira gʻolibi shartnoma tuzishdan bosh tortgan boʻlsa, buyurtmachi eng yaxshi taklifning yangi elektron tanlovini oʻtkazadi.

**12.4.** Shartnoma loyihasida koʻrsatilgan shartlar buyurtmachi tomonidan shartnoma tuzish vaqtida toʻldirilishi mumkin. Xarid qilish tartibi natijalariga koʻra, buyurtmachi gʻolib bilan narxlarni pasaytirish boʻyicha muzokaralarga kirishish huquqiga ega. Agar taklifda koʻrsatilgan narx tovar (mahsulot)ning boshlangʻich narxini aniqlash jarayonida hisobga olingan ishtirokchining ilgari taqdim etilgan tijorat taklifi narxidan oshib ketgan boʻlsa, buyurtmachi narxni pasaytirish uchun tanlov gʻolibiga ham murojaat qilishi mumkin.

